

Uzbekistan Airways tarixining bir qismiga aylangan insonlar

2026 9 Sentabr

Uzbekistan Airwaysda alohida uchrashuv bo'lib o'tdi. Shu kuni rahbariyat va hamkasblar o'zining parvoz faoliyatini yakunlayotgan, hayotining ko'p yillarini aviatsiya va aviakompaniyamizga bag'ishlagan uchuvchilarga minnatdorchilik bildirish uchun jam bo'lishdi.



Har bir inson uchun kasbiy faoliyatning yakunlanishi – hayotdagi muhim bir marradir. Sabablar va sharoitlar turlicha bo'lishi mumkin, ammo bir narsa o'zgarmas bo'lib qoladi – inson o'zidan keyin qoldiradigan hissassi. Uchuvchi uchun bu osmondagi minglab soatlar, yuzlab yo'nalishlar va qatnovlar, yo'lovchilar hamda ekipaj uchun mas'uliyat, hamkasblarga yetkazilgan tajriba, bilim va kasbiy an'analaridir.



“Uzbekistan Airways” AJ Boshqaruvi raisi Shuxrat Xudaykulov uchuvchilarga minnatdorchilik soʻzlari bilan yuzlandi. U har bir uchuvchiga koʻp yillik halol mehnati, professionalligi, masʼuliyati va oʻz ishiga sadoqati uchun tashakkur bildirdi.



Uning parvoz faoliyatini yakunlash aviakompaniya bilan xayrlashishni anglatmasligi haqidagi soʻzlari alohida samimiyat bilan yangradi. Har bir uchuvchi Uzbekistan Airways katta jamoasining bir qismi boʻlib qoladi. Rais aviakompaniya ularning bebaho kasbiy tajribasi va bilimlaridan kelgusida ham foydalanishga tayyor ekanligini taʼkidladi. Xohishga koʻra ular yerdagi ishlarini davom ettirishlari, yosh uchuvchilarni tayyorlash va oʻqitishda ishtirok etishlari yoki oʻz tajribalarini aviakompaniya faoliyatining boshqa yoʻnalishlarida qoʻllashlari mumkin.



Uchuvchilar nomiga Uzbekistan Airways rahbarlari tomonidan ham e'tirof so'zlari yangradi. Hamkorlikdagi ishlar, murakkab va mas'uliyatli qatnovlar, kasbiy mahorat hamda aviatorlarning bir avlodidan boshqasiga o'tib kelayotgan o'ziga xos parvoz madaniyati haqida so'z bordi.

Shu kuni to'rt nafar uchuvchiga minnatdorchilik so'zlari yo'llandi:



Oleg Serverovich Yagyayev o'nlab yillarini fuqaro aviatsiyasiga bag'ishladi. Ish faoliyati davomida u Yak-40, RJ-85, A310 va Boeing oilasiga tegishli havo kemalarini, jumladan, Boeing 787 Dreamliner'ni o'zlashtirib, ikkinchi uchuvchidan tortib havo kemasi sardori va uchuvchi-yo'riqchigacha bo'lgan kasbiy yo'lni bosib o'tdi. Uning umumiy parvoz vaqti 19 696 soatni tashkil etdi.



Aleksandr Valentinovich Shabanov parvoz faoliyati yillari davomida Yak-40, RJ-85, Boeing havo kemalari, Airbus A320 va Boeing 787 ni o'zlashtirdi. 2022-yilda uning mehnati "Do'stlik" ordeni bilan munosib baholandi.



Muxtor Makkamjonovich Komiljonov Yak-40, Il-62, RJ-85, Boeing 757 va Boeing 767 ni o'zlashtirib, ulkan kasbiy yo'lni bosib o'tdi. Uning ortida ikkinchi uchuvchi hamda havo kemasi sardori sifatidagi faoliyat va osmondagi bir necha ming soatlar turibdi.



Daniil Mendelevich Simayev parvoz faoliyatini Il-114-100'da boshlagan, so'ngra Boeing 757/767 havo kemalarida ishini davom ettirgan bo'lib, ikkinchi uchuvchidan havo kemasi sardori va uchuvchi-yo'riqchigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tgan.

Uchrashuv yakunida uchuvchilarga esdalik sovg'alari va gullar topshirildi. Rahbariyat va hamkasblar bilan tushilgan umumiy fotosurat rasmiy "xayr" o'rniga eng muhim – "rahmat" so'zi yangrashni ushbu kunning yana bir iliq xotirasiga aylandi. Oleg Serverovich, Aleksandr Valentinovich, Muxtor Makkamjonovich, Daniil Mendelevich – mehnatingiz va aviatsiyaga bag'ishlagan yillaringiz uchun rahmat. Uzbekistan Airways eshiklari siz uchun doimo ochiq.